



**TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK MARKAZI**

O'ZBEK TILINI DAVLAT TILI SIFATIDA O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIKALARI



Mavzuning dolzarbligi

Davlat tili siyosati doirasida o'zbek tilini o'qitish sifati ta'lim natijalarining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqiy ko'nikmalarini zamonaviy talablar darajasida rivojlantirish vazifasi turibdi.

An'anaviy usul kamchiliklari: An'anaviy grammatika-tarjima usuli o'quvchida amaliy nutqiy kompetensiyani yetarli darajada shakllantirmayapti — bu esa zamonaviy, kommunikativ va amaliyotga yo'naltirilgan metodikalarga o'tishni taqozo etadi.

Tahlil va statistik ma'lumot: O'qituvchilarning 84 foizi zamonaviy kommunikativ metodlarni qo'shimcha o'rganish hamda amaliyotga joriy etish zarurligini ta'kidlaydi (Manba: RIMM Metodik Tahlili).

Dastur maqsadi: Mazkur kurs va metodik ishlanma nazariyadan amaliyotga o'tishni ta'minlaydigan bosqichma-bosqich dastur bo'lib xizmat qiladi.

Maqsad va vazifalar



Maqsad

O'zbek tili o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetensiyasini kommunikativ va amaliy yondashuvlar asosida rivojlantirish, ularni zamonaviy dars loyihalashtirish ko'nikmalari bilan qurollantirish asosiy maqsad qilib belgilangan.



Baholash

Baholashning amaliy-kommunikativ mezonlaridan va zamonaviy dars monitoringidan samarali foydalanishni o'rganish.



Integratsiyalash

Kommunikativ va amaliy yondashuvlarning lingvodidaktik asoslarini tizimli yoritish hamda interfaol topshiriqlar bankini shakllantirish.



Loyihalash

O'quvchi markazli, interfaol va hayotiy vaziyatlarga asoslangan dars modellarini loyihalashtirish ko'nikmalarini shakllantirish.



Nazariy va metodik ta'minot:

Nutqiy faoliyat turlarini (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish) integratsiyalashgan holda rivojlantirish metodikasini mukammal o'zlashtirish.

Modul tuzilishi

BOSQICH	VAQT	BOSQICH MAZMUNI VA FAOLIYATI
1. Kirish va Motivatsiya	5–10 daq.	Mavzuga qiziqish uygʻotish, muammoli savol qoʻyish va dars maqsadlarini aniq belgilash.
2. Yangi Birliklarni Kiritish	15 daq.	Yangi til materialini kontekst, visual vositalar hamda audio/video resurslar orqali taqdim etiladi.
3. Boshqariluvchi Amaliyot	20 daq.	Namuna asosida oʻqituvchi nazorati va koʻrsatmalari ostida bajariladigan mashq va topshiriqlar.
4. Erkin Muloqot Faoliyati	30 daq.	Erkin kommunikativ faoliyat: rol-oʻyin, keys yechish, loyiha yoki guruh boʻlib muloqot qilish.
5. Refleksiya va Baholash	15 daq.	Natijalarni tizimli baholash, xatolar ustida konstruktiv ishlash va teskari aloqa berish.

Kommunikativ yondashuvning mohiyati



“Tilni o‘rganish emas, til orqali muloqot qilishni o‘rganish”

Ma’no ustuvorligi

Muloqotdagi aniq ma’no va amaliy muloqot maqsadi darsda birinchi o‘ringa qo‘yiladi.

Vazifaga yo‘naltirilganlik

O‘quvchilar hayotiy va qiziqarli topshiriqlarni til vositasida hal etadilar.

Xatoga bag‘rikenglik

Dars davomidagi xatolar nutqiy rivojlanishning tabiiy qismi va bosqichi hisoblanadi.

Autentik material

Darsda haqiqiy matn, audio va vaziyatlardan foydalaniladi

Zamonaviy metod va texnikalar

1

Rol-o'yinlar

O'quvchilar berilgan ijtimoiy-maishiy hayotiy vaziyatda ma'lum bir rolni ijro etadilar (masalan, vokzalda, kutubxonada, shifoxonada, do'konda).

2

Juftlik-intervyu

Ma'lumotlar bo'shlig'i (Information Gap) asosida bir-birlaridan kerakli ma'lumotni so'rab olish mashqlari.

3

Muhokama-doira

Muammoli va ochiq savollar asosida kichik guruhlarda o'zaro fikr almashish va tahlil qilish.

4

Keys-stadi (Case-study)

Sinfda real pedagogik yoki maishiy vaziyatlarni chuqur tahlil qilish va eng maqbul amaliy yechim topish.

5

Stansiyalar Usuli

Sinf xonasini bir necha mustaqil ish stansiyasiga bo'lish va har xil topshiriqlarni navbat bilan bajarish.

6

Hikoya zanjiri

Guruh a'zolari navbatma-navbat berilgan kalit so'zlar yordamida mantiqiy hikoyani davom ettiradilar.

Amaliy (praktik) yondashuvning mohiyati



*“Bilim — amalda
qo‘llanganda qadrlidir”*

Vazifaga asoslangan ta’lim

O‘quvchi grammatik nazariyani darhol aniq amaliy va nutqiy topshiriqda qo‘llaydi.

Hayotiy kontekst

Mavzular va lisoniy birliklar o‘quvchilarning kundalik muloqot ehtiyoji asosida tanlanadi.

Mahsuldor faoliyat

Har bir mashg‘ulot yakunida o‘quvchi aniq bir amaliy mahsulot (matn, taqdimot, muloqot, loyiha) yaratadi.

Refleksiya

O‘quvchi o‘z natijasini tahlil qilish va yaxshilash imkoniyatiga ega

Kutilayotgan natijalar



Vaziyatlarni loyihalash

Real muloqot vaziyatlariga asoslangan interfaol va kommunikativ mashqlar tuzish ko'nikmasiga ega bo'lish.



Topshiriqlar banki

O'z dars faoliyati va metodik portfeli uchun kamida 10 ta tayyor amaliy topshiriq to'plamini shakllantirish.



Baholash vositalari

Nutqiy kompetensiyalarni xolisona va mezonlar asosida baholash instrumentlaridan foydalana olish.




Integratsiyalashgan dars

To'rtta asosiy nutqiy faoliyatni (tinglash, gapirish, o'qish, yozish) bitta dars ssenariysida va rejasida uyg'unlashtirish.



Dars loyihalash bosqichlari



Baholash mezonlari

Zamonaviy baholash tizimida asosiy e'tibor o'quvchining faqat lisoniy (grammatik) xatolariga emas, balki qo'yilgan muloqot vazifasini qay darajada bajara olganligiga qaratiladi.

Mezon	Tavsif	Ulush
Ravonlik va muloqot samarasi	Nutqning ravonligi va muloqot maqsadiga erishilganligi	55%
Lisoniy aniqik	Grammatik va leksik me'yorlarga rioya qilish	25%
Interaktivlik va faollik	Tashabbuskorlik, hamkorlik va faollik	0%



Metodik resurslar va vositalar



QR-kodli materiallar

Har bir mavzu bo'yicha qo'shimcha video/audio manbalarga tezkor kirish



Video-darslar to'plami

Namunaviy dars mashg'ulotlarining metodik tahlil bilan tayyorlangan videosaboqlari.



Metodik qo'llanma

Har bir texnika bo'yicha bosqichma-bosqich yo'riqnoma va namunalar



Topshiriq banki

A1–B2 darajalari bo'yicha differensiallashtirilgan amaliy va kommunikativ topshiriqlar majmuasi.



1.1. Kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati: An'anaviy grammatik o'qitishdan funksional-kommunikativ paradigmaga o'tish.

KOMPETENSIYA TURLARI		
Kompetensiya turlari	Mohiyati	Amaliy ko'rinishi
 Nutqiy (kommunikativ)	O'qish, tinglab tushunish, yozish va gapirish orqali fikr almashish	Matnni o'qib tushunish, audio matnlarni eshitib tahlil qilish, dialoglar tuzish, esse, xat, rasmiy hujjatlar yoza olish. 
 Lingvistik (til)	Grammatik, fonetik, leksik va orfografik bilimlarga ega bo'lish	Qo'shimchalarni to'g'ri qo'llash, so'zlarning ma'nolarini anglash, to'g'ri yozish va talaffuz qilish qoidalariga amal qilish. 
 Pragmatik (vaziyatga moslashish)	Til birliklarini nutqiy vaziyat, maqsad va tinglovchiga qarab to'g'ri tanlay olish	Do'stlar bilan so'zlashganda norasmiy tildan, rasmiy idoralarda rasmiy idaraviy uslubdan foydalanish; yoshga doir vaziyatlarda: bolalar va kattalar uchun mos muloqot shakli. 
 Sotsiolingvistik (ijtimoiy-madaniy)	Tilning madaniy me'yorlari, milliy nutqiy qadriyatlar va etiketlarga amal qilgan holda muloqot qilish.	Kattalarga hurmat yuzasidan "Siz"lab murojaat qilish, o'zbekona turg'un birikmalar: taomlanish oldidan "Yoqimli ishtaha", mehmon kutganda: "Xush kelibsiz" kabi so'zlarni o'z o'rnida qo'llash. 
 Strategik (kompensator)	Muloqot jarayonida til yetishmovchiligi yoki tushunmaslik yuzaga kelganda muammodan chiqa olish qobiliyati.	Bilmaydigan o'zbekcha so'zi o'rniga sinonimini qo'llash, yoki so'z ma'nosini unga aloqador boshqa so'zlar bilan tushuntirish. 

1.2. Backward Design (Teskari loyihalash) konsepsiyasi: Darsni kutilayotgan natijadan kelib chiqib rejalashtirish.

Teskari Dizayn



An'anaviy dars loyihasi



Mavzuga yo'naltirilgan:

O'qituvchi ma'lumot beradi, grammatik qoidalarini tushuntiradi va so'z yodlatadi.



Kamchiligi:

O'quvchi so'zlarni va tarjimini biladi, ammo hayotiy vaziyatda erkin muloqot qila olmaydi, natija mavhum qoladi.

Backward Design (Teskari Loyihalash)



Natijaga yo'naltirilgan:

Dars kutilayotgan natijadan boshlanadi: *"Dars oxirida o'quvchi hayotda nima qila oladi?"*



Ketma-ketlik:

1. Istalgan yakuniy natija
2. Baholash dalillari
3. O'quv faoliyati plani

MEZON	AN'ANAVIY DARS LOYIHASI (MAVZUGA YO'NALTIRILGAN)	BACWARD DESIGN DARS LOYIHASI (NATIJAGA YO'NALTIRILGAN)
1-Bosqich: Istalgan yakuniy natijani aniqlash	O'quvchilarga kasb nomlarini o'rgatish, lug'at boyligini oshirish va ularni o'z ona tiliga tarjima qila olishiga erishish.	Dars yakunida o'quvchi kelajakda tanlamoqchi bo'lgan kasbini va unga xos kamida 2 ta asosiy vazifani og'zaki ta'riflab bera oladi.
2-Bosqich: Natijaga erishilganini ko'rsatuvchi dalillar	-Yangi so'zlarni yozadi va yodlaydi -Matnni o'qiydi -Kasblarga oid grammatik mashqlarni (masalan, kim? nima? so'roqlariga javob bo'luvchi so'zlarni topish) bajaradi.	Muloqotda ishlatiladigan qoliplarni o'rganadi. ("Men kelajakda... bo'lmoqchiman. Chunki men...") Kasbga aloqador otlarni moslashtira oladi.
3-Bosqich: Dars jarayoni va o'quv faoliyatini rejalashtirish	O'qituvchi o'quvchidan kasb nomlarini tarjimasini so'raydi, yoki lug'at diktant oladi.	Taqdimotlar yoki o'yin orqali kasblar haqida suhbatlashiladi. Masalan: "Men kimman" o'yini orqali sinfdagi barcha o'quvchilar darsga jalb qilinadi.



2.1. SMART maqsadlar tizimi: O'quv maqsadlarini aniq, o'lchanadigan va erishiladigan natijalarga yo'naltirish mexanizmlari.

7- sinf "O'zbek tili" darsligining "Tabiat hodisalari (tabiat hodisalariga mos fe'llarni qo'llash)" mavzusi asosida.



KATEGORIYA	TA'RIFI	O'ZBEK TILI DARSIGA MISOL
S — Specific (Aniq)	Dars maqsadi aniq va o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi kerak	Tabiat hodisalari nomlarini bilishi va ularga oid fe'llarni to'g'ri qo'llab gaplar tuza oladi
M — Measurable (O'lchanadigan)	Natijani o'lchash imkoniyati bo'lishi lozim.	Berilgan so'zlarni fe'llar bilan moslashtira oladi.
A — Achievable (Erishish mumkin bo'lgan)	O'quvchining yoshi va joriy til darajasiga (7-sinf A2 daraja) mos bo'lishi kerak.	O'quvchi ob-havo haqida kamida 5 ta gap tuza oladi va gapiradi.
R — Relevant (Mavzuga mos/hayotiylik)	Hayotiy, kundalik muloqot ehtiyojlar va DTS talablariga mos kelishi kerak.	Ob-havoni aks ettiruvchi belgisi rasmlar orqali og'zaki dialog va yozma shaklda imlo qoidalari asosida yoza oladi.
T — Time-bound (Vaqt bilan chegaralangan)	Maqsadga erishish vaqti belgilangan bo'lishi kerak	Darsning amaliy qismi yakuniga qadar (25 daqiqada).

2.2. Bloom taksonomiyasi – kognitiv bilimlarni rivojlantirish vositasi.

BLOOM TAKSONOMIYASI DARAJALARI

DARAJA	TAVSIF	O'ZBEK TILI DARSIDA FAOLLASHTIRUVCHI FE'LLAR
 1. Bilish (Remembering)	O'rganilgan materialni, faktlarni, atamalarni xotirada saqlash va qayta eslash.	Atash, sanab o'tish, ta'riflash, topish, takrorlash.
 2. Tushunish (Understanding)	O'rganilgan ma'lumotning mohiyatini anglash, o'z so'zi bilan tushuntirish.	Izohlash, tasvirlash, misol keltirish, almashtirish, qayta ishlash, guruhlash, farqini topish, aniqlash.
 3. Qo'llash (Applying)	Bilimlarni yangi amaliy vaziyatlarda ishlatish.	Foydalanish, tahrirlash, gap tuzish.
 4. Tahlil (Analyzing)	Butunni qismlarga ajratish(matnni qismlarga bo'lish), ular o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini va tarkibini aniqlash.	Ajratish, sababini ko'rsatish, solishtirish, farqlash.
 5. Baholash (Evaluating)	Fikr yoki qarorlarni asoslash, hukm chiqarish.	Baho berish, tanqid qilish, tasdiqlash, asoslash.
 6. Yaratish (Creating)	Qismlarni o'zaro birlashtirib, mutlaqo yangi yaxlitlik, tuzilma yoki mahsulot yaratish.	Loyihalashtirish, yozish, rejalashtirish, yaratish, ishlab chiqish.

DARS SAMARADORLIGI TAHLILI



Backward Design va Bloom taksonomiyasi integratsiyalashgan kompetensiyaviy darslarda o'quvchilarning erkin nutqiy muloqot ko'nikmasi hamda darsdagi faolligi an'anaviy darsga nisbatan 35-40% ga yuqori ko'rsatkichni namoyon etdi.



AMALIY DARS: ZAMONAVIY TOSHKENT

6-sinf dars modeli

Mavzu: Zamonaviy Toshkent (sifatlarning qo'llanishi)

➞ **SMART maqsad:** Dars yakunida Toshkentning zamonaviy qiyofasi haqida sifatlardan foydalanib dialog tuzish. ("Men gidman" rolli o'yini asosida.)

➞ **Baholash dalili:**

- Toshkentda joylashgan maskanlar haqidagi qismlarga bo'lingan matnlarni birlashtirish va ma'lumotga ega bo'lish. Toshkentdagi binolar va ularning xususiyatlari (sifatlar)ni moslashtirish.
- "Domino" o'yini orqali sifatlarning ma'no turlarini o'rganish.





Matn qismlarini birlashtiring.

Guruhlarga bo'lining. Hosil bo'lgan matnni o'qib bering.




CHORSU BOZORI



Chorsu bozori — Toshkent shahrining eng mashhur va qadimiy savdo maskanlaridan biri. U poytaxtning Eski shahar qismida joylashgan bo'lib, asrlar davomida savdo-sotiq va odamlar gavjum bo'ladigan muhim maskanlardan biri sifatida tanilgan. Bozorning eng diqqatga sazovor jihati — uzoqdan ko'zga tashlanadigan ulkan moviy gumbazidir. Chorsu bozorida turli xil meva va sabzavotlar, quruq mevalar, ziravorlar, non va milliy shirinliklar sotiladi. Shuningdek, bu yerda o'zbek milliy taomlarini tatib ko'rish va turli hunarmandchilik buyumlarini xarid qilish mumkin. Bozorning rang-barang rastalari, milliy taomlari va o'ziga xos Sharqona muhiti sayyohlarda katta qiziqish uyg'otadi. Bugungi kunda Chorsu bozori nafaqat savdo qilinadigan joy, balki Toshkentning tarixiy va madaniy qiyofasini aks ettiruvchi sayyohlik maskani hamdir. Poytaxtga tashrif buyuradigan sayyohlar qadimiy bozor muhitini his qilish, milliy mahsulotlar bilan tanishish va Toshkent hayotini yaqindan ko'rish uchun Chorsuga tashrif buyuradilar.



ZAMONAVIY BOG'LAR



TOSHKENT CITY PARK



"YANGI O'ZBEKISTON"
BOG'I

Toshkent shahrida aholining dam olishi va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi uchun ko'plab zamonaviy bog'lar barpo etilgan. Toshkent City Park, "Yangi O'zbekiston" bog'i, Magic City va Eco Park shular jumlasidandir. Bu maskanlarda keng yashil maydonlar, chiroyli gullar, sayr yo'laklari, favvoralar va bolalar uchun o'yin maydonchalari mavjud. Ayrim bog'larda zamonaviy yoritish tizimlari, sport maydonchalari va turli ko'ngilochar maskanlar ham tashkil etilgan. Kechqurun bog'lar rang-barang chiroqlar bilan yanada go'zal ko'rinadi. Odamlar bu yerda sayr qilish, sport bilan shug'ullanish yoki oila a'zolari bilan maroqli hordiq chiqarishlari mumkin. Zamonaviy bog'lar Toshkentning obod, ko'rkam va yashil shaharga aylanishiga xizmat qilmoqda.



MAGIC CITY



ECO PARK



TOSHKENT *City*

Toshkent City — poytaxtimizdagi zamonaviy va koʻrkam majmualardan biridir. U shaharning markaziy qismida joylashgan. Majmua hududida baland binolar, zamonaviy ofislar, mehmonxonalar va dam olish maskanlari barpo etilgan. Toshkent City hududidagi katta bogʻ sayr qilish va hordiq chiqarish uchun qulay joy hisoblanadi. Bu yerda odamlar oilasi bilan vaqtini mazmunli oʻtkazishi mumkin. Kechqurun zamonaviy binolarning chiroqlari yonib, hudud yanada chiroyli koʻrinishga ega boʻladi. Turli tadbirlar va koʻngilochar dasturlar ham tashkil etiladi. Toshkent City poytaxtimizning zamonaviy qiyofasini namoyon etuvchi maskanlardan biridir. U Toshkentning kundan-kunga rivojlanib borayotganini koʻrsatadi.





TOSHKENT

Teleminorasi




Toshkent teleminorasi — poytaxtimizning eng mashhur ramzlaridan biri. U 1985-yilda foydalanishga topshirilgan va balandligi 375 metrni tashkii etadi. Teleminora Oʻrta Osiyoda balandligi boʻyicha 1-oʻrinda turadi. Shaharning deyarli barcha hududlaridan koʻrinib turadi. Unda televideniye va radio dasturlarini uzatish uchun zamonaviy qurilmalar oʻrnatilgan. Teleminoraning yuqori qismida kuzatuv maydonchasi va mehmonlar uchun maxsus joylar mavjud. Bu yerdan Toshkent shahrining goʻzal manzarasini tomosha qilish mumkin. Toshkent teleminorasi nafaqat muhim aloqa inshooti, balki shahrimizning diqqatga sazovor maskanlaridan biri hamdir.



TOSHKENT *metrosi*

Toshkent metrosi — poytaxtimizning eng muhim va zamonaviy transport tizimlaridan biridir. U 1977-yilda ishga tushirilgan va O'rta Osiyodagi birinchi metro hisoblanadi. Metro bekatlari o'ziga xos me'moriy ko'rinishi, chiroyli bezaklari va milliy naqshlari bilan ajralib turadi. Ayrim bekatlarda o'zbek xalqining tarixi, madaniyati va buyuk allomalariga oid bezaklarni ko'rish mumkin. Metro orqali shaharning turli hududlariga tez, qulay va xavfsiz yetib borish mumkin. Ayniqsa, tirbandliklar ko'p bo'lgan paytlarda metro Toshkent aholisi uchun juda qulay transport vositasidir. Toshkent metrosi poytaxtimizning zamonaviy qiyofasini namoyon etuvchi muhim inshootlardan biridir.



2- topshiriq.

Rebusni yeching. Hosil bo'lgan so'zlarni turkumlarga ajrating.

3- topshiriq.

“Domino” ning javoblarini toping.

4- topshiriq.

“Men gidman” o'yinini tashkil qiling.





MEN GIDMAN



TOSHKENT TELEMINORASI



Toshkent teleminorasi
O'zbekiston poytaxtining
mashhur ramzlaridan biridir.



Uning balandligi
375 metr.



U Markaziy Osiyodagi
eng baland teleminoradir.





MEN GIDMAN



ISTIROHAT BOG'LARI



Toshkentda hordiq chiqarish va dam olish uchun
ko'plab go'zal bog'lar mavjud.



MILLIY BOG'

Poytaxtimizdagi eng yirik va mashhur bog'. Bu yerda sayr qilish, dam olish va turli o'yin-kulgilardan bahramand bo'lish mumkin.



ECO PARK

Ekologik toza va zamonaviy bog'. Bu yerda tabiat qo'ynida sayr qilish, sport bilan shug'ullanish va oilaviy hordiq chiqarish uchun barcha sharoitlar yaratilgan.



MAGIC CITY

Ko'ngilochar va zamonaviy bog'. Turli attraksionlar, ko'rsatuvlar, restoranlar va savdo markazlari bilan dam olishni yanada qiziqarli qiladi.





MEN GIDMAN

TOSHKENT CITY



Toshkent City — poytaxtimizdagi zamonaviy biznes va ko'ngilochar markaz.



Bu yerda savdo markazlari, restoranlar, mehmonxonalar va ofislar joylashgan.



Toshkentning yangi qiyofasini yaratmoqda.





MEN GIDMAN



TEATR



**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
MILLIY AKADEMIK DRAMA TEATRI**



O'zbekistonning bosh
drama teatri bo'lib,
1947-yilda tashkil
etilgan.



Alisher Navoiy nomi
bilan 2001-yilda
taqdirlangan.




Teatrda klassik va
zamonaviy asarlar
sahnalashtiriladi.



TEATR ICHKI QISMI



SAHNA KO'RINISHI



SAHNA ORTIDA JARAYON




Alisher Navoiy nomidagi Milliy akademik drama teatri – madaniyat va san'atimizning
muhim markazi. Bu yerda tomoshabinlar yuksak mahoratli aktyorlarning chiqishlarini
tomosha qilib, unutilmas taassurotlar olishadi.





Xush
kelibsiz!

MEN GIDMAN CHORSU BOZORI



-  Chorsu bozori – Toshkentdagi eng qadimiy bozorlaridan biridir.
-  Bu yerda turli millatlarning savdo va madaniyati uyg'unlashgan.
-  Bozorda mahalliy mahsulotlar, ziravorlar, meva-sabzavotlar va milliy taomlar topiladi.



MEN GIDMAN


KUTUBXONA



ALISHER NAVOIY
MILLIY KUTUBXONASI



RESPUBLIKA
BOLALAR KUTUBXONASI



- ✓ Kutubxonalar bilim manbai va ma'naviyat maskanidir.
- ✓ Alisher Navoiy Milliy kutubxonasi – yurtimizdagi eng yirik kutubxona.
- ✓ Respublika bolalar kutubxonasi bolalar uchun bilim va ijod olamini ochadi.





MEN GIDMAN

TOSHKENT SAVDO MARKAZLARI



Toshkentda ko'plab zamonaviy savdo markazlari mavjud.



Samarqand Darvoza, NEXT, High Town kabi markazlar mashhur.



Bu markazlarda xarid qilish va hordiq chiqarish uchun barcha sharoitlar bor.





MEN GIDMAN



ISLOM SIVILIZATSIYA MARKAZI



**ISLOM
SIVILIZATSIYA
MARKAZI**



Islom sivilizatsiyasi markazi – bilim va ma’rifat maskanidir.



Bu yerda islom olamining boy tarixi, ilm-fani, madaniyati va buyuk allomalari haqida ma’lumot beriladi.



Zamonaviy texnologiyalar orqali o’tmishimiz merosi jonlanib, kelajakka ilhom bag’ishlaydi.





MEN GIDMAN

KO'KALDOSH MADRASASI




Ko'kaldosh madrasasi
XVI asrda Shayx
Abdulla Yaffari
tomonidan qurilgan.




Madrasada o'qitish
bilan birga, ilm-fan va
ma'rifat rivojlangan.




Bugungi kunda
madrasa tarixiy yodgorlik
sifatida asrab-avaylanadi
va sayyohlar uchun
qiziqarli maskan.



ICHKI QISMI



DARSLIK XONASI



HUNARMANDCHILIK NAMUNALARI



Ko'kaldosh madrasasi – Toshkentning qadimiy va noyob me'moriy yodgorliklaridan biri.
U o'zining go'zal bezaklari, ko'k rangli koshinlari va tarixiy ahamiyati bilan ajralib turadi.

2- qism.

BLOOM TAKSONOMIYASI DARAJALARIGA MOS TOPSHIRIQLAR TAYYORLASH

6- sinf. Mavzu: "Hunarmand podsho" ertagi. Adabiy o'qish.

(Ertakni o'qib beriladi yoki audiomatn holida eshittiriladi.)

Bilish. "To'g'ri-noto'g'ri" jadvali

Tushunish. Ertakdagi voqealarni ketma-ketligini aniqlash. Moslashtirish topshirig'i

Qo'llash. "Men kimman?" o'yini

Tahlil. T sxema

Baholash. Savollarga javob berish.

Yaratish. Rasm asosida ertakni davom ettirish.





Sexrli daftar.

Bir kuni Anvar bobosining sandig'idan juda qadimiy, sirli bir daftar topib olibdi. Daftarni ochib qarasa, uning birinchi sahifasida shunday yozuv bor ekan:

«Bu daftarga yozilgan uchta tilak ertasi kuni albatta amalga oshadi!»

Anvar daftarni qo'liga olib, uzoq o'ylanib qolibdi. Uning xayoliga turli-tuman tilaklar kelaveribdi: shokolad, velosiped, yangi o'yinchoq, qiziqarli kitob va hatto mitti mushuk... Ammo Anvar qaysi tilakni tanlashni bilmas edi..



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!